

KOGNITIV FAOLIYAT BADIY MATN TILINING ASOSIY JIHATI SIFATIDA

Tursunov Jaxongir Panjixonovich,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

jakhongir.9613@gmail.com

Annotatsiya: Kognitiv tilshunoslik, kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli holda, inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Bugungi zamonaviy tilshunoslik o'z oldiga qo'ygan ko'plab vazifalarning aksariyati inson va uning kognitiv tasavvurlari doirasidagi lingvistik tahlillarni olib borish, o'rganish bilan bog'liq desak, adashmaymiz. Bunday o'rganishlar badiiy matn asosida olib borilganda esa qamrov yanada kengayadi. Yozuvchi kognitivi muallif yoki qahramon nutqida namoyon bo'lar ekan bir qancha badiiy vositalar bilan yanada yorqinlashadi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, til, taffakkur, kognitiv tilshunoslik.

Til va tafakkur munosabati tilshunoslik ilmi paydo bo'lgandan buyon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortgan, ko'plab lingvistik qonuniyatlarning asosiy mohiyati sifatida baholangan. Shubhasiz, til tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Aynan shu bog'liqlik inson lisonoy faoliyatini yuzaga keltiradi va boshqaradi.

Lisoniy faoliyat – kognitiv faoliyat bilan bevosita bog'liq, uning ajralmas bir qismi. Ammo kognitiv tilshunoslik, kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli holda, inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitivist – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Lekin bu qiziqish oddiy emas. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqot matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga

harakat qiladi¹. Shunga ko'ra, har bir individual tafakkur tarzi (kognitiv) o'ziga xos va tamomila takrorlanmasdir. Har bir badiiy tasvir muallifning yangi yaratig'idir. Bu har bir matn parchsida, jumla va so'zda aks etib turadi. Misolga e'tibor qilaylik:

Bas! Nima qilasan, xasta yuragingni tilka-pora qiladigan esdaliklar bilan o'zingni egovlab? Endi kimga kerak bu alamli xotiralar? Oshingni oshab, yoshingni yashab bo'lding! Endi qolgan besh kunlik umringni beg'alva-betashvish o'tkazishni o'ylasang-chi, Normurodvoy! Mana, mol-dunyong, kitob-pitoblaring bilan ko'chib kelding. Dunyoga kelib orttirgan eng katta boyliging – shu kitoblar! Salkam o'n ming jild kitob! O'shalarni o'qib, mutolaa qil. Yoshlarga ulash. O'qishsin. Bahramand bo'lishsin. Oxirgi paytlardagi eng ulug' orzung shu edi-ku. Shu ish bilan o'zingni ovuntir, taskinu tasalli ol. Bu chirkin o'ylar bilan dilingni namozshom qilishdan na foyda, og'ayni? (O.Yoqubov "Diyonat")

Odil Yoqubov o'zbek adabiyotining yirik vakili sifatida o'z badiiy tiliga va ifoda uslubiga ega yozuvchilardan hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan namuna yozuvchining boy badiiy mahoratini ko'rsatish bilan birga o'ziga xos lisoniy faoliyatini – kognitivini ham ko'rsatib bergan. Esdaliklar bilan shundoq ham xasta yurakni tilka-pora qilish, o'zini egovlash borasida aytilgan maslahatda shaxsga hamdardlik mazmunini ifodalash bilan birga uning ruhiyatiga bevosita ta'sir o'tkazilgan. Shunday ruhiy mazmun ifodalovchi birliklarni saralash, o'z o'rnida qo'llash va tasviriylik, rang-baranglikni ta'minlash yozuvchidan katta badiiy mahorat va lingvistik bilim talab etadi. Shunday badiiy mahorat va lingvistik bilim jamlanmasi yozuvchi tafakkuri bilan bog'liq kognitiv tassavvurlar bazasini yaratadi, yuzaga keltiradi.

Bugungi zamonaviy tilshunoslik o'z oldiga qo'ygan ko'plab vazifalarning aksariyati inson va uning kognitiv tasavvurlari doirasidagi lingvistik tahlillarni olib borish, o'rganish bilan bog'liq desak, adashmaymiz. Bunday o'rganishlar badiiy matn asosida olib borilganda esa qamrov yanada kengayadi. Yozuvchi kognitivi muallif yoki qahramon nutqida namoyon bo'lar ekan bir qancha badiiy vositalar bilan yanada yorqinlashadi. Chunki tilning o'ziga xos jihatlarini yorituvchi ekspressivlik, poetiklik, badiiylik, estetiklik kabi vazifalari yozuvchi badiiy mahorati orqali yoritilgan personaj kognitivi vositasida yuzaga chiqadi. Buni badiiy asar matnini kognitiv modellashtirish nuqtayi nazaridan tahlilga tortsak, ushbu lingvistik vazifalar xususiy diskursda qahramonning ichki dunyosi va shaxsiy dunyoqarashini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'xshatish, qiyoslash, solishtirish kabi

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор”, 2006. – В.75

lingvopoetik modellar, albatta, yozuvchining individual tasavvuri va salohiyatini ko'rsatadi. O.Yoqubov asarlarida bu o'ziga xoslik ham anchayin yorqin akslanadi:

Komandir temirni qizig'ida bosib, xo'p to'g'ri qilgan ekan, negaki, bular ertasiga, azon paytida aziz do'stlarini dafn etib bo'lib, qo'rg'onga qaytib kelganda, qizil askarlar ham u yoqdan kallakesarlarning qo'llarini orqasiga bog'lab, qo'ydek haydab keladilar.
(O.Yoqubov. "Ota izidan")

Matnning kognitiv tahlili til va nutq aloqadorligi misolida qabul qilish, tushunish, anglash, idrok qilish, matni (axborotni) qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlarni qamraydi hamda xotira, tasavvur, hissiy qabul qilish singari psixik jarayonlar to'g'risidagi bilimlar ko'magida amalga oshadi². Zotan, T.A.Van Deyk matni tushunish uchun dastlab olamni tushunish lozimligini ta'kidlaydi.

Albatta, har bir badiiy asar yuzaga kelar ekan, o'zining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib jamiyatdagi biror bir voqea-hodisa, siyosiy yoki ijtimoiy holatni ifodalash, qahramonlar nutqi orqali esa jamiyatdagi insonlarning hayotga munosabatini ifodalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Buni o'quvchi kitobxonga yetkazish esa yozuvchidan o'ziga xos mahorat, badiiy tasvir vositalarini tanlashda individual xarakter talab etadi. O.Yoqubovning ayni boradagi badiiyati ham tahsinga loyiq. Ayniqsa, qahramonlarning ruhiy holatini yoritishda turli tasviriy vositalardan foydalanish mahorati yaqqol sezilib turadi.

Masalan, matnda urg'u berilayotgan asosiy g'oya va unga yo'naltiruvchi kalit so'zlar matn muallifining olamga munosabatini ifoda etadi, bu unsurlar va hodisalar uning olamni qay tarzda anglashi va tushunishiga doir o'ziga xos ko'rsatmadir, matnda alohida mohiyat kasb etgan qismlar va ularda psixik-emotsional, obrazli tasavvurning shakllanishiga asos tug'diruvchi lisoniy birliklar esa (bu, masalan, shevaga oid so'z, biror maqol, so'z, metaforik ifodalar, ibora, xalq ongida yashab qolgan pretsedent birlik nomi bo'lishi ham mumkin) matn muallifining e'tibor qaratmoqchi bo'lgan va o'zi anglagan olamning tayanch tushunchalari bo'lishi mumkin³. Quyida keltirilgan parchada O.Yoqubovning shu boradagi mahorati ko'zga tashlanadi:

Otaqo'zi, xuddi birov biqiniga bigiz sanchganday, butun gavdasi bilan o'girilib qaradi. U bilan baravar Latofat ham qayrilib qaradi. Ikki odam birdan burilib qaragani

² Дейк ван.Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – Москва: Прогресс, 1989. – 310 с.

³ To'liqroq qarang: Kurbanazarova N.Sh., Bozorov H.X. Matn tilshunosligi. Darslik. – Toshkent: "Dimal", 2025. – B.170

uchunmi yo Otaqo 'zining vajohati qo 'rqqulik edimi, xi-xilab kulgan yosh yigitcha o 'tirgan joyida serrayib qoldi.
(O.Yoqubov "Diyonat")

Dunyo tilshunosligida diskursiv shaxs ko'p bosqichli hodisa sifatida talqin etilib, unga ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida doimiy ravishda o'zgarib turadigan moslashuvchan tuzilma sifatida qaraladi. Uning tavsifi murakkab bo'lib, kommunikativ xulq-atvor, kommunikativ vakolat va nutq tomonidan belgilangan modellarni qamrab oladi. Kommunikativ jarayonda kognitiv omil va diskursiv kompetensiyaga asoslangan motivatsion parametrlar namoyon bo'ladi. Diskursiv shaxs muayyan lingvistik vositalar, muloqot taktikasi va strategiyasini, muloqot amalga oshirilayotgan mafkuraga eng mos keladigan nutq xatti-harakatlari modellarini tanlaydi. Diskursiv shaxsning o'ziga xosligi tuzilish hamda lingvistik jihatdan ko'p bosqichni o'z ichiga oluvchi murakkab qurilma ekanligi bilan izohlanib, o'zida kognitiv, kommunikativ-pragmatik, semantik-uslubiy, madaniy va psixologik jihatlarni aks ettirishi mumkin. Shuningdek, diskursiv shaxs badiiy matnlarda intensionallik va kontekstual aniqlikni ham ifodalashi bilan ahamiyatli sanaladi⁴.

Mirzo Ulug'bek ko 'zini yumib boshini sekin chayqadi. U volidai mehriboniga nisbatan ko 'nglida iliq bir tuyg 'u uyg 'otishga harakat qildi. Lekin ko 'z oldiga uzun bo 'yli, ko 'k ipak ko 'ylak kiyib, boshiga ko 'k ro 'mol o 'ragan, qo 'lidan tasbehi tushmaydigan kalondimog ' bir xotin keldi... Bobosi Amir Temur Ko 'ragoniy shahodat sharobini ichgandan beri Gavharshod begim bu kiyimini, ko 'k ipak ko 'ylagi bilan k 'ok ro 'molini tashlamas, go 'yo sohibqiron uchun to o 'lguncha motam tutgan, shu bilan dunyo ishlaridan qo 'l yuvib, u dunyo g 'amiga o 'tgan edi.

(O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi")

Odil Yoqubov asaridan olingan ushbu parchada qahramon tasavvuri va yozuvchining mukammal badiiy tasviri kitobxonga tabiiy bir holatni ifoda etadi. Bunda, Mirzo Ulug'bek tasavvuridagi diskursiv shaxs – Gavharshodbegim haqidagi hayollar yozuvchi mahorati orqali matnda ifoda etilgan. Qahramonning ruhiy holati, u tasavvur qilayotgan shaxsning ruhiyati va tashqi ifodasi kabi jihatlar badiiy matnga xos bo'lgan birliklar vositasida yoritilgan. "Ggo 'yo sohibqiron uchun to o 'lguncha motam tutgan, shu bilan dunyo ishlaridan qo 'l yuvib, u dunyo g 'amiga o 'tgan" ayolning ichki dunyosini tushunish va shunday xulosaga kelishning o'ziyoq yozuvchidan mazkur qahramonning psixologik, sotsiologik va pragmatik

⁴ Abdullayeva K.M. Ingliz va o'zbek badiiy matnida muallif diskursiv shaxsi voqelanishining kognitiv aspekti. Fil.fan.bo'yicha fals.dok.diss.avtoreferati. – Toshkent, 2025. – B.5.

holatini aniq baholashni talab etadi. Aynan shu o'rinda yozuvchi kognitivi va uning qahramonlar holatini his etish va ifodalash mahorati yuzagaa chiqadi.

Ma'lumki, lisoniy shaxs tushunchasining mohiyati nutqiy matnlarni yaratuvchi hamda qabul qiluvchi shaxsning xarakter-xususiyatlari hamda qobiliyatlari yig'indisini anglatadi. Diskursiv shaxs mohiyati va tipologiyasi, tuzilishi va lingvistik jihatdan murakkab ko'p bosqichli tuzilma hisoblanib, badiiy matnda nafaqat muallif, balki qahramon shaxsiyatining ichki dunyosini ham ochib berishga xizmat qiladi. Tuzilish hamda lingvistik murakkablik, haqiqatni aniq va teranroq ifodalash kabi jihatlariga ko'ra diskursiv shaxs hamda lisoniy shaxs tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Diskursiv shaxs o'zida kognitiv, kommunikativ-pragmatik, semantik-uslubiy, madaniy va psixologik jihatlarni mujassam etadi. Kognitiv jihat muallif va qahramonning tafakkuri, tasavvuri hamda dunyoqarashini namoyon etuvchi xususiyat bo'lsa, uning xulq-atvor jihatini belgilovchi ijtimoiy va kasbiy mavqeyi, maqsadlari, motivlari, qiziqishlari va munosabati pragmatik jihat orqali verballashadi. Shu bilan bir qatorda, badiiy matnda diskursiv shaxs intensionallik va kontekstual aniqlik vositasida ham ifodalanishi mumkin. Diskursiv shaxs insonning diskursni yaratish va uni qabul qilishni taqozo etuvchi qobiliyat va ta'riflari yig'indisi sifatida tushuniladi. Muallif va personaj diskursiv shaxslari quyidagicha farqlanadi: a) semantik-uslubiy til murakkabligi darajasiga ko'ra; b) kommunikativ-pragmatik omillarning tilda namoyon bo'lish xarakteriga ko'ra; d) intellektual xususiyatni aks ettirish darajasiga ko'ra; e) personajning muayyan ruhiy tipni namoyon etuvchi psixologik, individual xususiyatlarining aks etishiga ko'ra. Ko'plab tadqiqotlarda muallif diskursiv shaxsi o'zida muayyan kommunikativ, madaniy-tarixiy, milliy, ijtimoiy va individual xususiyatlarni aks ettiruvchi shaxsiyat sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni diskursiv shaxs lingvistik ijodkorlik xususiyati mujassamlashgan ijodiy shaxs sifatida ko'zga tashlanadi. Bu borada muallifga xos bo'lgan modallik hamda munosabatlarni o'zida aks ettirgan konseptual olam manzarasini ochib berishga asosiy e'tibor qaratiladi⁵.

Matn konseptual tahlilining asosiy vazifasi muallif olam manzarasi va uning matn ko'rinishida moddiylashish mexanizmini o'rganishdan iborat. Matnga kognitiv yondashuv matnning tipi va janridan qat'iy nazar samarador yondashuvdir. Matnni kognitiv jihatdan tekshirish unda verballashgan – lisoniy moddiylashgan va olam konseptual manzarasining

⁵ Abdullayeva K.M. Ingliz va o'zbek badiiy matnida muallif diskursiv shaxsi voqelanishining kognitiv aspekti. Fil.fan.bo'yicha fals.dok.diss.avtoreferati. – Toshkent, 2025. – B. 13.

tayanch tushunchalari hisoblangan unsurlarni to'g'ri aniqlash hamda konseptlarning tizimiy xususiyatini va o'zga konseptlar bilan aloqasini to'g'ri belgilash uchun sharoit yaratadi⁶.

Yozuvchi kognitivi va konseptlarni ifodaetish borasidagi harakatlari badiiy adabiyotning qaysi yo'nalishida kuchliroq ekanligi borasida ham olimlarning fikrlari, qarshlari turlichadir. Qaysidir tadqiqotchi bu borada poetik matnlarda imkoniyat ko'proq deb hisoblasa, ayrim tadqiqotchilar nasriy matnlarni yuqori baholaydilar. Xususan, S.Karimova o'z tadqiqotida poetik matn borasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi:

Poetik matn eng murakkab kodlangan tizim hisoblanadi. Unda obraz, ramz, motivdan tashqari, lingvofonetik vositalarning ma'no hosil qilishdagi roli katta ahamiyatga ega. Kod tizimi o'quvchi tomonidan bir ma'noda emas, balki uning intellektual boyligi va o'qish vaqtidagi psixologik, hissiy holatiga bevosita bog'liq holda qabul qilinadigan badiiy tushunchalar tizimi sifatida belgilanishi mumkin. Poetik matn san'at asari sifatida voqelikni modellashtirish tizimidir: u voqelikni nafaqat aks ettiradi, balki o'z olamini yaratadi, muallif idrokidagi boshqa olamni namoyon qiladi⁷.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inkor etmagan holda, nasriy matnlarda ham turli xil lingvokognitiv imkoniyatlarni namoyon etuvchi, ya'ni matnni boyituvchi vositalar o'z ifodasini topishi mumkin. Albatta, bu yozuvchining badiiy mahorati bilan bevosita bog'liq. Xususan, inson ichki kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashda qo'llaniladigan ayrim so'z va iboralar poetik matnlarda qofiyalanib kelish jihatiga ko'ra ma'lum bir cheklanishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu borada nasriy matnlarda imkoniyat kengroq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2020. – 271 б.
2. Умуркулов З. Бадий матнда қиёс ва унинг лингвопоэтик қиммати: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – 134 б.
3. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.

⁶ To'liqroq qarang: Kurbanazarova N.Sh., Bozorov H.X. Matn tilshunosligi. Darslik. – Toshkent: "Dimal", 2025. – B.169

⁷ Karimova S.S. "Baxt" konseptining badiiy matnda voqelanishi va tarjima muammolari (o'zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida). Fil.fan.bo'yicha fals.dok.diss.avtoreferati. – Buxoro, 2023. – B.12.

4. Эрназарова И. Муаллиф сўз ижодкорлигининг лисоний-когнитив таҳлили:
Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD). дисс.– Самарқанд, 2022. – 140 б.